

**SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XORIJIY
MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI**

A'zamov Rasuljon Salimjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda soliq nazoratini tashkil etishning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Rossiya, AQSH, Qozog'iston, Norvegiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar misolida soliq nazorati tizimining shakllanishi, nazorat shakllari va tahlil mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida xorijiy tajriba asosida soliq nazoratining samaradorligini oshirish yo'llari, xavf mezonlariga asoslangan yondashuvlar hamda soliq to'lovchilar bilan interaktiv aloqalar mexanizmlari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, zamonaviy soliq boshqaruvi tizimida analitik texnologiyalar, risk baholash dasturlari (EOD, FIRA-Pro va boshqalar) hamda soliq to'lovchilarni ixtiyoriylik asosida majburiyatlarni bajarishga undovchi yondashuvlar eng samarali deb topildi. Maqola yakunida O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish uchun xorijiy amaliyotdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Soliq nazorati, soliq tekshiruvi, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi, Rossiya tajribasi, Qozog'iston tajribasi, xalqaro soliq nazorati, kameral tekshiruv, risk mezonlari, soliq islohoti.

Kirish

Soliq nazorati davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi soliq to'lovchilarning qonuniy majburiyatlarini bajarish ustidan samarali nazoratni amalga oshirishdir. So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda soliq nazoratini tashkil etishning zamonaviy shakl va usullari keng joriy etilib, bu tizim soliq intizomini mustahkamlash, byudjet tushumlarini oshirish hamda soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Metodologiya (Methods)

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va huquqiy-normativ tahlil usullari qo'llanilgan. Xorijiy davlatlar (Rossiya, AQSH, Qozog'iston, Norvegiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Italiya)ning soliq nazorati tajribalari o'rganilib, ularning nazorat shakllari, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi va xavf tahlili yondashuvlari o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, rasmiy soliq ma'muriyati hisobotlari, xalqaro moliyaviy institutlar ma'lumotlari va normativ hujjatlar asosida soliq nazorati tizimining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Natija va muhokama

Soliq nazoratini tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari haqida fikr yuritadigan boʻlsak, soliq nazorati sohasidagi mamlakatlarining ilgʻor shakl va usullari amaliyotda joriy etilishi isbotlagan. Bu usullar soliq tizimiga sezilarli ravishda ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Rossiyada soliq organlarining ish faoliyati samaradorligini oshirishda soliq nazorati davlat nazorati tizimida asosiy rol oʻynaydi. Rossiya qonun hujjatlarga muvofiq soliq nazorati – soliqlar va yigʻimlar toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni byudjetga toʻlashning toʻgʻriligi, toʻliqligi va oʻz vaqtida toʻlanishi ustidan nazorat hisoblanadi.

Soliq nazorati choralari yoki shakllari roʻyxati juda keng boʻlib uni yanada davom ettirish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining “Soliq nazorati toʻgʻrisidagi umumiy qoidalar” deb nomlangan 82-moddasiga muvofiq, soliq nazorati soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan soliq tekshiruvlari, soliq toʻlovchilar, soliq agentlari, soliq toʻlovchilardan tushuntirishlar olish, buxgalteriya hisobi va hisobot maʼlumotlarini tekshirish, faoliyat yuritiladigan binolar va hududlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi.

Soliq nazoratining asosiy shakli soliq tekshiruvi boʻlib, u soliq organining hisob-kitobning toʻgʻriligi, soliq toʻlovlarini byudjetga oʻtkazishning toʻliqliligi va oʻz vaqtida oʻtkazilishini nazorat qilish boʻyicha harakatidir.

Soliqlar va yigʻimlar boʻyicha Rossiya qonun hujjatlariga muvofiq kameral soliq tekshiruvlari amalga oshiriladi. Ularning samaradorligi va ahamiyati jihatidan soliq nazorati choralari orasida yetakchi oʻrinni egallagan soliq tekshiruvidir.

Zamonaviy sharoitda davlat tomonidan soliq toʻlovchilarga soliq va yigʻimlarni toʻlash vazifalarini sadoqat bilan bajarishga imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratishi bilan bir qatorda, soliq toʻlashdan boʻyin tovlash faktlari sonini kamaytirishi kerakligi va bugungi kunda soliq nazoratini emas, balki soliq huquqbuzarliklarini aniqlashning oldini olish dolzarbligi taʼkidlangan.

Shuni taʼkidlash kerakki, turli mamlakatlarda soliq nazorati amaliyoti juda xilma-xildir. Shu bilan birga, umuman har qanday soliq tizimining va xususan soliq maʼmuriyatining eng muhim muammosi soliq organlari faoliyatini soliq yigʻishni koʻpaytirishga yoʻnaltirishdir. Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda soliq nazoratini amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan soliq boshqarmalari tashkil etilmoqda. Baʼzi hollarda ushbu boʻlimlar Moliya vazirligidan alohida ish olib boriladi. Masalan, Yaponiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda esa uning tarkibiy boʻlinmalari hisoblanadi. Shuningdek, Italiya, AQSH, Buyuk Britaniya ushbu mamlakatlarga misol boʻla oladi.

Soliq nazoratini tashkil etishning xorijiy amaliyotida soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lash bo'yicha o'z vazifalarini ixtiyoriy ravishda bajarishga qaratilgan xizmatlar va individual faoliyatga katta e'tibor beriladi. Bu ommaviy axborot vositalari orqali faol ma'lumot olish, soliq to'lovchilarga maslahat berish va o'qitish uchun Sall-markazlardan foydalanish, soliq to'lovchilarni tayyorlash bo'yicha bepul bukletlarni tarqatish va soliq deklaratsiyalari va boshqalar.

Norvegiyada soliq organlari vakolatiga qo'shimcha ravishda soliq to'lovchilarning hududlarini, yer hujjatlarini, mahsulotlarini soliq tekshiruvlari doirasidan tashqarida inventarizatsiyadan o'tkazish vakolati berilgan.

Rossiya Federatsiyasida soliq islohotlari jarayonida soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazishga yondashuv sezilarli darajada o'zgartirilgan.

Soliq organlari asta-sekinlik bilan soliq to'lovchilarni har tomonlama nazoratni kamaytirib, soliq to'lovchining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini turli xil tahlil qilishga, xavf mezonlari asosida baho berishga qaratgan.

Uzoq vaqt davomida joylarda soliq nazoratining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri — bu soliq tekshiruvlari hisoblanib, ushbu ko'rsatkich soliq inspeksiyasida jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilarning umumiy sonida o'tkazilgan soliq tekshiruvlarining ulushini aks ettiradi. Soliq nazoratini amalga oshirishda joylarda tekshiruvlar sonining doimiy o'sishi talab qilinsada, ammo bu usul tekshirish samaradorligi sifatini pasaytirib kelgan.

Bugungi kunda ushbu muammo soliq organlari tomonidan joylarda soliq tekshiruvlarini rejalashtirish konsepsiyasini qo'llash orqali hal qilindi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, joylarda soliq tekshiruvlarini rejalashtirish bu soliq huquqbuzarligini sodir etish xavfi bo'yicha ommaviy mezonlarga muvofiq joylarda nazorat qilish uchun soliq to'lovchilarni tanlashga asoslangan jarayondir.

Tekshiriladigan soliq to'lovchilarni tanlash tashkilotlarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Joylarda tekshirishlarni rejalashtirish uchun soliq organlari hozirda 20 dan ortiq dasturiy ta'minotlaridan foydalanadilar, shu jumladan EOD-mahalliy daraja, FIRA-Pro, kompyuter "ma'lumotlarning vizual tahlili", shuningdek "bir kunlik", "sxemalar", "xavf fayli" va boshqalar orqali subyektlarning sohasiga oid faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanib boriladi. Soliq xizmati mutaxassislari katta hajmdagi ma'lumotlarni "ochiq" manbalardan, shuningdek norasmiy manbalardan, masalan, Internet resurslaridan, ommaviy axborot vositalaridan oladilar. Shunday qilib, soliq to'lovchilar va soliq organlari umumiy maqsadga ega — soliq intizomini oshirish va soliq nizolari soni va hajmini kamaytirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshiradilar.

Soliq nazoratini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va byudjet samaradorligiga erishish uchun soliq to'lovchida uzoq muddatli jarayonda o'tkaziladi. Soliq va moliyaviy natijalarining soliq stavkalari haqida ma'lumot har tomonlama o'rganishga

qaratilib, soliq organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida nazorat chora-tadbirlar amalga oshirish uchun emas, aksincha faqat soliq tekshiruvlarini o'tkazishda mehnat xarajatlari, balki bunday chora-tadbirlar samaradorligini baholash uchun yetarli tizim shakllantirilgan.

Hozirgi soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi idoraviy Nizomda soliq tekshiruvlari natijalarini tahlil qilish va baholash amalda ko'zda tutilmagan. Federal soliq xizmatida soliq organlari faoliyatini baholash Rossiya Federal soliq xizmati hududiy organlari faoliyatining samaradorligini baholash metodologiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. Nazorat ishlari natijalariga ko'ra soliq organlari 2-NK shaklidagi "soliq organlarining nazorat ishlari natijalari to'g'risida hisobot" to'g'risidagi hisobotni shakllantiradi va nashr etadi, bu faqat nazorat choralari samaradorligini baholash uchun ma'lum mezonlarga imkon beradi bular:

- o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari soni (shu jumladan, qonunbuzarliklar aniqlangan tekshirishlar soni);


- tekshirishlar natijalari asosida qo'shimcha hisoblangan soliqlar, jarimalar, sanksiyalar miqdori.

Ko'rinib turibdiki, Rossiya Federal soliq xizmati veb-saytida e'lon qilingan statistik hisobotlarda kameral soliq va sayyor soliq tekshiruvlarining natijalari aks ettirilib, shu bilan birga amalga oshirilgan nazorat choralarining samaradorligini ko'rsatadigan rasmiy hisobotlar mavjud emas.

Soliq tekshiruvlari samaradorligini baholash ancha ko'p o'lchovli jarayon, ammo samaradorlik ko'rsatkichi iqtisodiy natija va ushbu samarani keltirib chiqaradigan xarajatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, xarajatlar miqdori qanchalik kichik bo'lsa va nazorat faoliyati natijasining qiymati qanchalik katta bo'lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, samarali soliq tekshiruvini shunday tekshirish deb hisoblash mumkin, uning natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan soliqlar, jarimalar va jarimalar miqdori uni o'tkazish xarajatlaridan sezilarli darajada oshib ketadi, shuningdek soliq to'lovchidan qo'shimcha soliq summalarini haqiqiy undirish uchun yetarli oraliq choralari mavjud bo'ladi. Agar yetarli bo'lmagan taqdirda uning mablag'larini va mol-mulkidan undirish mumkin.

Joylarda soliq tekshiruvlarining samaradorligini baholash uchun, qoida tariqasida, soliq organining nazorat ishlarining alohida ko'rsatkichlari qo'llaniladi, masalan:



1-rasm. Soliq tekshiruvlarining samaradorligini baholash¹.

Nafaqat soliq organlarining nazorat ishlarining samaradorligi, balki samaradorligini aks ettiruvchi soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazishning sifat ko'rsatkichlari bilan to'liq baholash mumkin:

- soliq to'lovchilarning tekshirishlar bilan qamrab olinish darajasi (hisobot davrida tekshirilgan soliq to'lovchilar sonini tekshirishda ro'yxatga olingan soliq to'lovchilar umumiy soniga nisbati);
- soliq organining mutaxassislariga tekshirish o'tkazilish yuki;
- muayyan davr uchun byudjetga soliq tushumlarining umumiy summasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'implarning ulushi;
- tekshiruvchi tomonidan baholangan qo'shimcha soliqlarning umumiy summasidan undiriladigan soliqlar va yig'implar ulushi va boshqalar.


Soliq tekshiruvini o'tkazish xarajatlari va soliq organi xodimini moliyaviy ta'minlash uchun davlat xarajatlari nisbatini hisobga olsak, unda soliq organi tomonidan umuman o'tkazilgan soliq tekshiruvlarining samaradorligini baholash mumkin. Shu bilan birga, soliq organini saqlash xarajatlari davlat tomonidan belgilanadi va tegishli qoidalar bilan tartibga solinadi.

Samarali soliq nazorati tizimi, bir tomondan, subyektlar uchun unchalik og'ir bo'lmagan soliqlarni to'lash uchun shunday sharoitlarni shakllantirishi kerak, boshqa

¹ Rasm muallif tomonidan shakllantirildi.

tomondan, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash amaliyotini to‘xtatishga imkon beradigan analitik soliq nazorati vositalariga ega bo‘lishi kerak. Rossiya iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan soliq munosabatlarining tubdan yangi shakllari shakllanmoqda.

Shuningdek o‘rganilgan Qozog‘iston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq nazorati — bu soliq organlari tomonidan Qozog‘iston Respublikasining soliq qonunchiligi, Qozog‘iston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari normalarining bajarilishi ustidan davlat nazorati bo‘lib, ularning bajarilishini nazorat qilish soliq organlariga yuklangan.



2-rasm. Soliq tekshiruvlarining samaradorligini baholash²

Soliq nazoratining ushbu shakllari doirasida quyidagilar amalga oshirilib kelingan:

- soliq majburiyatining bajarilishini hisobga olish, ijtimoiy to‘lovlarni hisoblash, ushlab qolish va o‘tkazish majburiyati;
- nazorat-kassa mashinasining bajarilish tartibini tekshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni, shuningdek aviatsiya yoqilg‘isini, bioyoqilg‘i va mazutni nazorat qilish;
- transfert bahosini nazorat qilish;
- davlat mulkiga olingan mol-mulkni hisobga olish, saqlash, baholash, foydalanish va sotish bo‘yicha bir qator ro‘yxatga olishni nazorat qilish;
- Qozog‘iston Respublikasi davlat qonunchiligini amalga oshirishga qaratilgan funksiyalarni bajarish bo‘yicha vakolatli davlat va mahalliy qo‘shimcha organlarning faoliyatini nazorat qilish;
- yuklarni va tovarlarni qayta ishlash tartibini nazorat qilish;

² Rasm muallif tomonidan shakllantirildi.

- vakolat doirasida markirovkalash va izlanishga bo'ysunadigan tovarlarning aylanishini nazorat qilish.

AQSHda tekshirishlarning asosan uch xil sirtqi (pochta orqali hujjatlarni IDXning Nazorat boshqarmasiga taqdim etish yo'li bilan), kameral (IDXning joylashgan joyida), joyiga chiqib (soliq to'lovchining joylashgan joyiga chiqib) turlari amal qiladi va qaysi tekshirish turini tanlash qo'yilgan vazifalar kompleksi va qiyinchiligidan kelib chiqib belgilanadi.

Mamlakatimizdagi soliqqa tortish prinsiplari ham klassik prinsiplarga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida o'z ifodasini topgan.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

Soliq tizimi bir tomondan davlat byudjetiga undiriladigan amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar tizimi, ikkinchi tomondan esa ushbu soliq va to'lovlarni davlat byudjetiga tushumini hisobga olish va nazorat qilish funksiyasini bajaruvchi davlat soliq xizmati organlaridan iborat.

Qonunchilikda belgilangan funksional vazifalarni bajarishda, byudjetga tushumlarni ta'minlashda, soliq to'lovchilar bilan ishlashda va soliq ma'murchiligini amalga oshirishda bevosita davlat soliq xizmati organlari mas'ul hisoblanadi.

Belgilangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda soliq ma'murchiligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq ma'murchiligini amalga oshirishni asosiy subyekti bo'lib, davlat soliq xizmati organlari hisoblansa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari faol ishtirok etadilar.

Xulosa

Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari shuni ko'rsatadiki, samarali soliq nazorati tizimi faqat jarima va sanksiyalar orqali emas, balki tahlil, rag'bat va raqamlashtirilgan boshqaruv asosida rivojlanadi. Shu sababli, O'zbekiston soliq organlari faoliyatini takomillashtirishda **riskga asoslangan yondashuvlar, raqamli monitoring tizimlari** hamda **ochiqlik va ixtiyoriylik tamoyillariga** tayanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Россия Федерацияси Солиқ кодекси, 82-модда.
2. Федеральная налоговая служба РФ. Годовой отчет о результатах контрольной деятельности, 2023.
3. Ministry of Finance of Japan. *Tax Administration Annual Report*, 2022.
4. OECD. *Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies*. Paris: OECD Publishing, 2023.
5. U.S. Internal Revenue Service (IRS). *Data Book*, 2022.

6. Qozog‘iston Respublikasi Soliq kodeksi, 2022-yilgi tahrir.
7. Azizov Sh., Turayeva Z. *Soliq nazoratini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari*. – T.: Bank-Moliya akademiyasi nashriyoti, 2024.
8. IMF (2022). *Tax Administration Diagnostic Assessment Tool (TADAT) – Methodology and Indicators*. Washington D.C

